

QURILISH SANOATINING IQTISODIY TIZIMDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Abdullayev Axror Jaxbarovich

Toshkent arxitektura-qurilish

universiteti, I.f.f.d., dotsent

Abdullayev.a.77.@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilish sanoatining milliy iqtisodiyot tizimidagi o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qurilish tarmog‘ining asosiy kapitalni shakllantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, qurilish sanoatining multiplikativ ta’siri, bandlikni ta’minlashdagi ahamiyati hamda hududiy rivojlanishga qo‘shadigan hissasi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Qurilish sanoati, iqtisodiy tizim, infratuzilma, kapital shakllanishi, multiplikativ ta’sir, bandlik, hududiy rivojlanish, loyiha boshqaruvi, ekologik barqarorlik, tadbirkorlik

Qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning tarkibiy va funksional jihatdan eng murakkab tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning iqtisodiy tizimdagi o‘rni, avvalo, asosiy kapitalni shakllantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yaratish, hududiy rivojlanishni ta’minlash hamda investitsiya resurslarini real iqtisodiy aktivlarga aylantirish funksiyalari bilan belgilanadi. Shu jihatdan qaralganda, qurilish sanoati iqtisodiy o‘shishning passiv natijasi emas, balki uning moddiy bazasini yaratuvchi faol drayver tarmoq sifatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy nazariyada kapital qo‘yilmalarning samaradorligi ko‘pincha ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanishi, infratuzilma rivoji va tranzaksion xarajatlarning kamayishi orqali ifodalanadi. Mazkur jarayonlarda qurilish sanoati hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chunki iqtisodiyotning barcha real sektorlari — sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi — o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy infratuzilma aynan qurilish orqali yaratiladi.

Shu sababli ishlab chiqarish korxonalari, logistika markazlari, transport-kommunikatsiya tizimlari, uy-joy fondi, ijtimoiy obyektlar va muhandislik tarmoqlari qurilish faoliyati natijasida vujudga keladi. Bu esa qurilish sanoatini iqtisodiy tizimning nafaqat tarkibiy qismi, balki boshqa tarmoqlar faoliyatining institutsional-moddiy asosini shakllantiruvchi tayanch bo‘g‘in sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Qurilish sanoatining iqtisodiy tizimdagi o‘rni uning multiplikativ ta’siri orqali yanada chuqurroq namoyon bo‘ladi. Infratuzilma va qurilishga yo‘naltirilgan

investitsiyalar iqtisodiyotda “ko‘paytiruvchi effekt”ni yuzaga keltirib, bir vaqtning o‘zida bir nechta tarmoqlarning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qurilish sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar:

- sanoat ishlab chiqarishini kengaytiradi
- xizmatlar sektorini rivojlantiradi
- transport va logistika samaradorligini oshiradi
- ichki bozor talabini faollashtiradi

OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, infratuzilma investitsiyalari iqtisodiy o‘shishga uzoq muddatli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va bu ta‘sir tashqi iqtisodiy samaralar orqali yanada kuchayadi. World Bank tadqiqotlarida esa infratuzilmaning ishlab chiqarish, mehnat bozori va savdo jarayonlariga tizimli ta‘siri qayd etilgan.

Qurilish sanoati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishda ham muhim o‘rin tutadi. Uy-joy qurilishi, ta‘lim va sog‘liqni saqlash obyektlari, transport infratuzilmasi va muhandislik tarmoqlari aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy yondashuvlarga ko‘ra:

- sifatli infratuzilma inson kapitali rivojiga ta‘sir qiladi
- transport tizimi mehnat mobilligini oshiradi
- ijtimoiy obyektlar hayot sifatini yaxshilaydi

Shu sababli qurilish sanoati iqtisodiy o‘shish bilan birga ijtimoiy farovonlikni ta‘minlovchi strategik tarmoq sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda qurilish sanoatida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda:

- raqamlashtirish (BIM, digital monitoring)
- innovatsion materiallar qo‘llanilishi
- yashil qurilish konsepsiyasi
- energiya samaradorligi

Bu tendensiyalar qurilish sanoatini an‘anaviy tarmoqdan yuqori texnologik tarmoqqa aylantirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning strategik va tizim hosil qiluvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy o‘shishning moddiy asosini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, bandlikni ta‘minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Biroq tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari — yuqori risk, ko‘p subyektkli tuzilma va uzoq sikllilik — uni boshqarishda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Shu bois quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- loyiha boshqaruvini takomillashtirish
- risklarni boshqarish tizimini joriy etish
- raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash

- institutsional muhitni rivojlantirish

Shuningdek, ekologik talablarning ortib borishi qurilish sanoatida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etishni zarur qilib qo‘ymoqda.

Umuman olganda, qurilish sanoatining samarali rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. Infrastructure investment.
2. Égert B., Kozluk T., Sutherland D. Infrastructure and growth.
3. Войнаренко М.П. Кластерные технологии в системе развития предпринимательства, интеграции и привлечения инвестиций // Электронный ресурс: <http://www.unice.org/ie/wp8/documents/novsem.htm>.;
4. Войцех Хюбнер. Сектор малых и средних предприятий в Казахстане, Кыргызстане и Узбекистане: ожидания, действительность и потенциал \ Центральная Азия 2010. Перспективы человеческого развития. - с.130-145;
5. Васютичев А.В. Предпринимательская деятельность на рынке строительных услуг (на материалах Калужской области). Дисс. на соиск.уч.степ.к.э.н. Москва -2003г.;